XALQ DEPUTATLARI G‘ALLAOROL TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 25-iyun VI-66-83-3-45-K/24 G‘allaorol tumani

Tuman hokimligining davlat boji va sud xarajatlarini to‘lash bilan bog‘liq xarajatlarini qoplash maqsadida, tuman mahalliy byudjetiga “E-IJRO AUKSION” elektron savdo maydonchasida yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan mablag‘lar hisobidan O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 5, 6, 25-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

qaror qiladi

1. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Turdimurodov)ga 2024 yilda “E-IJRO AUKSION” elektron savdo maydonchasida yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan tushumlar hisobidan 28 200,0 (yigrma sakkiz million ikki yuz) ming.so‘m miqdoridagi mablag‘ni tuman hokimligiga ajratish vazifasi yuklatilsin.

2. Tuman hokimligi (X.Jo‘rayev) tuman mahalliy byudjetidan ajratilgan mablag‘dan maqsadli foydalanish vazifasi topshirilsin.

3. Tuman g‘aznachilik xizmati bo‘linmasi (B.Sattarov) mahalliy byudjetdan ajratiladigan mablag‘larni tegishli tashkilotlar hisob raqamiga o‘z vaqtida moliyalashtirishni ta’minlasin.

4. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish” doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari T.Qo‘chqorov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi OQBOYEV JALOLITDIN JAMOLOVICH